

E'TIBORSIZ QOLAYOTGAN XATOLAR**Erkinxo'jayeva Mohina Baxtiyor qizi***oriental universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola hozirgi paytda dolzarb muammolardan biriga aylangan o'z ona tilimizga bo'lgan hurmatsizlikni yoritib beruvchi manbalar haqida.*

Tayanch so'zlar: *o'zbek tili, rasmiy va norasmiy uslub, argon va jargon, innovatsion texnologiya, mobil tarmoqlar, hurmatsizlik, televizor, zangori ekran;*

Bilamizki, har bir xalqning so'zlashadigan tili bu albatta, o'z ona tilisidir. Shunday ekan, bizning ham o'z ona tilimiz bu - o'zbek tilidir. O'zbekiston hududida yashayotgan o'zbeklarni hammasi ham o'zbek tilida gaplashmaydi. Buning sababi esa albatta, atrof-muhitdir. Shunday bo'lsa-da, asil o'zbeklar o'zbek tilida suhbatlashishadi. Suhbatlashish ham 2 xil usulda amalga oshiriladi. Bular: norasmiy va rasmiy uslubda. Norasmiy deganda, uslubiyat jihatdan aytadigan bo'lsak, ikki inson orasidagi oddiy suhbat norasmiy suhbatga misol bo'la oladi. Rasmiy uslubga kelsak, insonlar orasida badiiy uslubga asoslangan holda gapirish, argon va jargonlarsiz, aniq faktlarga asoslangan holatdagi suhbatga aytiladi. Tashqi atrof-muhitga bir nazar solsak, turli xil millat vakillarini uchratishimiz mumkin. Bir tomondan o'ylab qarajak, bu albatta, yaxshi. Boshqa millat vakillarini bizga yaxshi tomoni shundaki, ular o'z ona tilini ya'ni o'z Vatandoshlari bilan suhbatlashadigan tilini bizning xalqimizga o'rgatadi. Chunki bizning o'zbek xalqi juda aqlli va izlanuvchan xalqdir. O'zbek xalqida bir maqol bor: Beshikdan to qabrgacha ilm izla. Hozirgi paytda bizda eng dolzarb mavzu ham yosh avlodlarni bilimli, yetuk bo'lib yetishishiga qaratilgan.

Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so'zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to'xtalib o'tdi. "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi Prezidentimiz.

O'zbek tilining mavqeini yuksaltirish o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida 2020-yil 20-oktyabrda qabul qilingan O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmoni bilan 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi, 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022-yillarda amalga oshirish dasturi, 2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi. 2020-yil 10-aprelda esa Davlatimiz rahbari tomonidan “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni imzolani, 21-oktyabr O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilandi.

Dunyo bo‘yicha hozir nima rivojlangan? Albatta, innovatsion texnologiyalar rivojlangan. Shu bilan bir qatorda, bizning yurtimizda ham shunday. Kitobga bo‘lgan ehtiyoj tobora kamayib bormoqda. Nega? Chunki, kitobdagi ma‘lumotlar mobil tarmoqlarda ham mavjud. Ammo, bu ma‘lumotlarni hammasini ham to‘g‘ri deb ayta olmaymiz. Negaki, mana shu ma‘lumotlar tarkibidagi ma‘lumotlarni eskirganligi, imloviy xatoliklar mavjudligi, qaysidir kitoblardan parcha holatda ko‘chirib olinganligi yaqqol ko‘rinib turadi. Agarda biz shu jihatlariga bee‘tibor bo‘lsak, kelajagimiz qanday bo‘ladi? Mobil tarmoqlar rivojlangani sayin, televizorlarga bo‘lgan ehtiyoj ham, ishtiyoq ham yo‘qolib boryapti. Dunyo yangiliklari, O‘zbekiston yangiliklari haqidagi ko‘rsatuvlar deyarli tomosha qilinmayapti. Nega? Texnologiya rivojlanib boryapti. Mana shu televizor tomosha qilish ham insonga ta‘lim beradi. Qanday qilib deysizmi? Masalan, dunyo yangiliklarini jurnalistlar rasmiy uslubda ko‘pgina fakt va dalillarga asoslangan holda, yoritib beradi. O‘zbek tilimizni esimizdan chiqarib qo‘ymasligimizga, o‘zbek tilini go‘zal til ekanligini his qilib turishga undaydi. O‘z tili bo‘la turib, o‘zga tilda deyarli gaplashmaslikka o‘rgatadi. Hamma bir xil fikrlay olmagani kabi, hamma ham bu narsani tushunavermaydi. Televizor ta‘lim beradi, biroq o‘zbek tiliga bo‘lgan hurmatsizlikni ham namoyon etishi mumkin. Qanday? Ma‘lumki, jurnalistlar zangori ekran ortida ham jonli suhbatlarda ham rasmiy uslubda suhbat olib borishadi. Shunday holatda kuzatildiki, maktabgacha ta‘lim muassasasida jurnalist va mudira orasida ochiqdan ochiq suhbat bo‘lib o‘tdi. Suhbat davomida mudiraning o‘z tiliga bo‘lgan hurmatsizligi yaqqol aks etdi. Aslida, mana shu mudira haqiqiy o‘zbek ayoli, o‘zbek farzandidir. Mana shu xalq farzandidir. Lekin nega o‘z tili bo‘la turib, o‘zga tilda gapirishi lozim. Bo‘lajak avlod biz kattalardan nimani o‘rganadi? Mana shu o‘rinda, o‘zbek xalq maqollaridan misol qilishimiz mumkin: “Tilga ixtiyorsiz – elga e‘tiborsiz.” Mana shu maqol yuqoridagi holatga xosdir. Mana shunday holatlar soni ko‘payganini insobatga olgan holda, bu holatlarni tuzatish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu yil bejiz “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili” deb nomlanmadi. Ta‘limni rivojlantirish, ta‘limga alohida e‘tibor, sifatli ta‘lim orqaligina kelajakning mustahkam poydevorini qurish oldimizga katta maqsad qilib qo‘yildi. Bugungi globallashuv jarayonida, turli tillar qorishib ketayotgan bir vaziyatda Koshg‘ariyning yuqoridagi fikrlari barchamizni ogohlikka

chaqiradi. Ajdodlarimizdan meros bo'lgan bu qadriyatni boy berib qo'yimaslik uchun barcha imkoniyatdan samarali foydalanishga undaydi.

Davlatimiz rahbari o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kunga bag'ishlangan tantanali marosimda "Dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallashni maqsad qilib qo'ygan har qaysi davlat, avvalo, o'z xalqining milliy tili va madaniyatini asrab-avaylashga, rivojlantirishga intiladi", deya ta'kidlagan edi.

Har bir millatning Vatani kabi yana bir buyuk boyligi bor. Bu ham bo'lsa uning tilidir. Aynan til odamlarni bir millatga mansub xalq sifatida birlashtiradi. Til – har bir millat o'zligining ajralmas belgisi, xalqni xalq, millatni millat qiladigan ramzlardan biri sanalib, asrlar osha ajdoddan-avlodga meros bo'lib yetib keladigan o'zaro muomala vositasidir. Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga binoan ona tilimizning istiqboldagi taraqqiyotiga oid ko'plab masalalar o'z yechimini topmoqda.

Shu ezgu g'oyaga muvofiq amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi tobora oshib borayotganiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Zero, til har bir millatning eng qadrli boyligi, uning ma'naviy qiyofasi, madaniyati, ichki dunyosini aks ettiruvchi muhim vositadir. So'nggi yillarda o'zbek tili va adabiyotini rivojlantirishga, tilimizning davlat tili sifatidagi nufuzini oshirishga qaratilgan bir qancha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Til siyosatini takomillashtirishga huquqiy asoslarning mustahkamlanishi davlat tili nufuzini yanada oshirdi. Bugun milliy yetakchimiz boshchiligida tilimizni asrab-avaylash maqsadida qonun, bir nechta farmonlar qabul qilindi. Qonun bilan "O'zbek tili bayrami kuni" belgilandi. Tilga bo'lgan e'tibor amaliyotga ko'chirilib, mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyat ekanligi namoyon etilmoqda.

Yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga vorislik ruhida tarbiyalashda O'zbek degan nom va til ajdodlarimiz istagan holga keltirilmoqda.

Tilning o'rnini bilishimiz, biz qaysi avlod vakillari ekanligimizni yana bir bor yoshlarga uqtirishimiz uchun arxiv hujjatlarini ko'tarishning o'zi kifoya. Minglab ajdodlarimiz o'z tili himoyasi uchun qatag'on qilingan. "Ayblov hujjatlari gapirganda" tilimizning, o'zimizning o'rnimiz qayerdaligini tushunib yetamiz.

2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida tilimizni rivojlantirishning muhim belgilari belgilangan. Jumladan, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishishning birdan bir yo'lini tanlab oldik, ya'ni davlat tilida ish yuritish. Bunga nafaqat ish yuritish, balki ish yuritish orqali odamlar ongida o'zbek tili imkoniyatlarini to'liq singdirish – yozma nutq, og'zaki nutq va tashqi ko'rgazma til siyosatining asosiy texnologiyalaridandir.

Yangi O'zbekistonda albatta, yangi dunyoqarash, yangi qarorlar joriy etilmoqda. Negaki, biz yoshlarni ma'naviy, yetuk bo'lib, o'z shaxsiy fikriga ega bo'lib, Vatanimiz

nomini dunyoga tanitadigan bo‘lib ulg‘ayishimiz, o‘z ustimizda ko‘proq ishlab, rivojlanishim uchun lozimdir. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo‘shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashimiz kerak. Til borki, millat barhayotdir. Til borki, tartib bordir. Til- millat ko‘zgusi unda xalqimizning asrlar silsilasidan, mustabidlik to‘fonlaridan sabr-matonat bilan bosib o‘tgan hayot yo‘li, madaniyati, tarixi, saviyasi, aql-zakovati aks etadi. Tilimizni ham inson uchun muhim omil, aziz va qadrlil unsurlar qatori muqaddas bilib, pokiza va ozoda saqlash, lug‘atimiz ko‘rki bo‘lgan “Vatan”, “Ona”, “Kitob”, “Mustaqillik” kabi so‘zlar mohiyatini chuqur anglash, milliy qadriyatlarimiz hamda til boyligimizni bor butunligicha kelajak avlodlarga yetkazib berish barchamizning insoniylik burchimizdir.

Demak, o‘zbek tilini mamlakatimiz ijtimoiy hayotida to‘laqonli ifodalanishini ta‘minlasak va takomillashtirib borsak, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlardan g‘ururlanish ruhida tarbiyalasak, ona tiliga bo‘lgan hurmati, mehr-muhabbati yanada ortib boraveradi.

Ana shundagina biz yurtimizdagi har bir fuqaroning davlat tilini bilishiga va buni burch va majburiyat sifatida his etishiga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. MAmba: O‘zA
2. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik/S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov .Sh,Rizayev.- T.: "Sharq"-2020 13-b
3. Kumush ABDUSALOMOVA, “O‘zkimyosanoat” AJ davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha bosh mutaxassisi
4. Shuhrat MIR RAYIM
- 5.
6. “O‘zarxiv” agentligi direktori maslahatchisi(10.11.2022)
7. Naibaxon Mamadaliyeva
8. Bosh direktor maslahatchisi filologiya fanlari doktori
9. Boyqobilova Gulhayo Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi
Axborot, tahlil va hujjatlarni korreksiyalash bo‘limi xodimi
10.Bekzod Xujamuratov
Majburiy ijro byurosining
boshqarma katta inspektori
4. Uktamovna, M. M. (2023). O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI. OBRAZLI EPITETLAR. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(23), 439-444.



5. Mamadjanova, M. (2023). ESSENTIAL CHARACTERISTICS OF EPITHET. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(10), 89-91.
6. Uktamovna, M. M. (2022). EPITETNING LINGVISTIK TABIATI. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(8), 26-30.
7. Uktamovna, M. M. (2023). TRANSFERRED EPITHET IN ENGLISH LANGUAGE. *Научный Фокус*, 1(1), 921-924.
8. Mamadjanova, M. U. (2022). O ‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA EPITETNING CHOG ‘ISHTIRMA TADQIQI. *ANTONAMAZIYA EPITETLAR. RESEARCH AND EDUCATION*, 1(5), 110-115.